

FUTBOL O'YINI TAKTIKASI

Sharipov Fayzullo Maribjon o'g'li

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport
universiteti Farg'ona filiali o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: *futbol taktikasi, taktik usullar, muayyan reja, taktik sxema, taktik sistema, Hujum va ximoya, futbol matchi, yarim ximoya, qanot o'yinchilari, hujumchilar va ximoyachilar*

Ключевые слова: *футбольная тактика, тактические методы, конкретный план, тактическая схема, тактическая система, Атака и защита, футбольный матч, полузащита, крайние игроки, нападающие и защитники*

Key words: *football tactics, tactical methods, specific plan, tactical scheme, tactical system, Attack and defense, football match, midfield, wing players, forwards and defenders*

KIRISH

Taktika deganda o'yinchilarning raqib ustidan g'alaba qozonishga qaratilgan individual va jamoaviy harakatlarini tashkil qilishi, ya'ni jamoa futbolchilarining muayyan rejaga binoan aynan shu muayyan raqib bilan muvaffaqiyatli kurash olib borishiga imkon beradigan birgalikdagi harakatlarini tushunish kerak. Taktikadagi asosiy vazifa hujum va himoya harakatlarining maqsadga erishtira oladigan eng qulay vosita, usul va shakllarini belgilashdan iboratdir. Qanday taktikani tanlash har bir alohida holda jamoa oldida turgan vazifalarga, kuchlar nisbati va o'yinchilarning o'zaro kurashuvchi guruhlariga, maydonning ahvoliga, iqlim sharoiti va hokazolarga bog'liq. Futbol matchi ko'p martalab hujumdan himoyaga va himoyadan hujumga o'tishdan iborat bo'lgani uchun ham, tabiiyki, har qaysi jamoaning hujum va himoya harakatlari uyushgan bo'lishi kerak. Taktika uchrashuv vaqtida butun o'yin faoliyatining asosiy mazmuni hisoblanadi. Muayyan raqibga qarshi to'g'ri tanlangan taktik sxema muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi, noto'g'ri tanlangan yoki uchrashuv mobaynida asqotmagan taktik sxema esa odatda mag'lubiyatga olib keladi. Raqiblarni neytrallash vazifalarini to'g'ri hal qila bilish va hujumdagi o'z imkoniyatlaridan muvaffaqiyatli foydalana olish umuman jamoaning ham, uning alohida o'yinchilarining ham taktik yetukligini ko'rsatadi. Hujum va himoyada hamma futbolchilarning harakatlari yaxshi uyushtirilgan hamda, albatta, faol bo'lgandagina jamoa muvaffaqiyatga erisha oladi. Murabbiy o'yinning taktik rejasini qanday qilib tuzgan bo'lmasin, bu reja alohida futbolchilarning harakatlari bilan amalga oshiriladi. Ana shuning uchun ham individual taktik kamolotga erishmay turib, jamoaning o'yinini chiroyli va risoladagidek qiladigan aniq taktik harakatlarni amalga oshirishni xayolga ham keltirib bo'lmaydi. Futbol o'yinida taktika bilan texnika bir-biriga chambarchas bog'liq bo'ladi. To'pni kimga va qanday uzatish lozim, raqibni dog'da qoldirish uchun

aylanib o'tishni ishlatish kerakmi yoki to'pni sherikka oshirgan ma'qulmi, darvozaga qaysi paytda zarb berish zarur ekanligini hal qilayotgan o'yinchi taktik tafakkurdan foydalanadi, ma'lum bir o'ylagan harakatini amalga oshirayotganda esa u texnik mahoratini namoyish etadi. Demak, texnika o'yinchining texnik rejalarini amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Texnik tayyorgarlik a'lo darajada bo'lsagina xilma-xil taktik harakatlarni bajarish mumkin. Teng kuchli jamoalar uchrashuvida ulardan birining g'alabasiga ko'pincha mag'lub bo'lganlarda irodaning kamlik qilgani yoki jismoniy va texnik tayyorgarlik bo'sh bo'lgani sabab qilib ko'rsatiladi. Biroq futbol o'yinidagi g'alaba aksariyat xollarda taktik rejalar kurashi bilan belgilanadi. Taktika ikki jamoaning jismoniy, texnik va ma'naviy-irodaviy tayyogarlkdagi darajalari teng bo'lganda, ulardan birining g'alaba qilishini ta'minlab beradigan muhim omildir. Yirik musobaqalardagi ko'plab misollar shundan dalolat beradi.

Asosiy qism: Futbol o'yini taktikasining tasnifi; Taktikadagi asosiy vazifa xujum va ximoya harakatlarining maqsadga erishtira oladigan eng qulay vosita, usul va formalarni belgilashdan iboratdir.

Qanday taktika tanlash har bir alohida holda jamoa oldida turgan vazifalarga, kuchlar nisbati va o'yinchilarning o'zaro kurashuvchi guruxlarga, maydonning ahvoliga, iqlim sharoitiga va boshqa sabablarga bog'liq. Futbolda o'yinda ko'p martalab hujumdan ximoyaga va ximoyadan, hujumga o'tishdan iborat bo'lgani uchun ham, tabiiyki har qaysi jamoaning hujum va ximoya harakatlarini uyushgan bo'lishi kerak. Taktika uchrashuv vaqtida butun o'yin faoliyatining asosiy mazmuni hisoblanadi. Raqibga tanlangan qarshi kurash taktikasi muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi, noto'g'ri yoki uchrashuv mobaynida asqotmagan taktika esa odatda mag'lubiyatga olib keladi. Raqiblarni neytrallash vazifalarini to'g'ri xal qila bilish va xujumdagi o'z imkoniyatlaridan muvaffaqiyatli foydalana olish umuman jamoaning ham, uning alohida o'yinchilarining ham taktik yetukligini ko'rsatadi. Hujum va ximoyada hamma futbolchilarning harakatlari yaxshi o'zlashtirilgan hamda, faol bo'lgandagina jamoa g'alabaga erisha oladi.

Murabbiy o'yining taktik rejaini qanday qilib tuzgan bo'lmasin, bu reja alohida futbolchilarning harakatlari bilan amalga oshiriladi. Ana shuning uchun ham individual taktik kamolotga erishmay turib ham, jamoaning o'yini yaxshi, aniq harakatlar qilishni xayolga ham keltirib bo'lmaydi.

Futbol o'yinida taktika bilan texnika bir-biriga chirmashib ketgan bo'ladi. To'pni kimga va qanday uzatishni, raqibni dog'da qoldirish uchun aylanib o'tish kerakmi, darvozaga qaysi paytda zarba berish kerakligini xal qila olgan o'yinchi tafakkuridan foydalanadi. O'yinchi maydondagi harakatni amalga oshirayotganda u esa texnik maxoratni ishga soladi. Demak, texnika o'yinchining taktik rejalarini amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Kuchi teng jamoalar uchrashuvdagi g'alabaga ko'pincha mag'lub bo'lganlarida iroda kamlik qilgani yoki jismoniy va texnik tayyorgarlik bo'sh bo'lgani sabab qilib ko'rsatiladi. Biroq futbol o'yinidagi g'alaba ko'pincha taktik rejalar kurashi bilan

belgilanadi. Taktika ikki jamoaning jismoniy, texnik va manaviy irodaviy tayyorgarlikdagi darajalari teng bo'lganda, ulardan birining g'alaba qilishini ta'minlab beradigan muxum omilidir.

Ko'pgina futbol mutaxassislarining e'tiroficha ustalik bilan ishlatilgan taktika muvaffaqiyat keltira oladi. Ba'zi onlarda har qanday raqibga qarshi o'ynaganda ham bir xil taktika ishlataveradilar. Taktika tomonidan bunday qashshoqlik bir xillik maxoratining o'sib borishiga to'sqinlik qiladi. Xar bir jamoa xilm-hil taktik rejada o'ynay bilishi kerak, bir xil taktika jamoaga mag'lubiyat olib kelishi mumkin.

1930-yillar boshida mashhur ingliz klubi "Arsenal" jamoasi bosh murabbiy A.Chenmen darvoza oldidagi eng xavfli xudud ximoyasini mustahkamlash uchun markaziy yarim ximoyachini ortga tortib, markaziy ximoyachi qilib qo'ydi. Tabiiyki, bu boshqa o'yinchilarning joylari o'zgarishiga, qolaversa, yangi taktik sistema ishlab chiqilishiga asos bo'ldi. Sistema "dub-ve" nomini olib, hammaga ma'qul keldi.

Bu sistemada ximoyachilar yon chiziqlarga yaqinroq turib, qanot xujumchilarni qo'riqlaydigan bo'ldilar. Qanot yarim ximoyachilar esa aksincha oldinroqqa chiqib maydon o'rtasiga yaqinroq o'ynaydigan bo'ldilar. Markaziy xujumchi bilan ikkala qanot xujumchilari oldinroqqa o'tib, xujum oldingi qatorini xosil qildilar. Ma'lum vaqtga qadar xujum bilan ximoyadagi kuchlar nisbatini teng bo'lib keldi. Biroq yaratishdan ko'ra barbot etish xamma vaqt oson bo'lgani uchun ozroq vaqtdan keyin ximoya ustunroq keladigan bo'ldi, bu gollar miqdori kamayib ketishiga, binobarin o'yinning tomosha tomoni susayib ketishiga olib keldi. Xar bir o'yinchi maydonda o'z zonasida xarakat qilib, faqat maydonning ximoya bo'ylab, o'ynash prinsipi ko'p jixatdan bunga sabab bo'ladi. Xamma o'yinchilarning ximoyaga ko'proq e'tibor berishi, ximoyada samarali xarakatlanishi, ximoya ampulasidagi o'yinchilarning vazifasini ancha osonlashtirib qo'ygan.

Taktikaning axamiyati; Raqibga qarshi kurashayotgan jamoa harakatlaridagi uyushqoqlikka alohida futbolchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash bilan erishiladi.

Futbolchilar vazifalariga ko'ra darvozabonlarga, qanot himoyachilari, markaziy himoyachilar, o'rta qator o'yinchilari, qanot hujumchilari va markaziy hujumchilarga bo'linadi. Futbolda shunday qarama-qarshilik bo'ladiki bunday o'yinlarda murabbiy tomonidan futbolchilarning joylashuviga qarab alohida topshiriq beriladi.

Futbol taktikasining rivojlanishi maydondagi o'yinchilarning vazifasini anchagina kengaytirdi. So'ngi o'tkazilgan yirik futbol turnirlarida futbol jamoalari maydonda ximoyaviy taktik o'yini ko'rsatishmoqdalar. Bu ximoyada o'ynovchi futbolchilarga yanada faolroq o'ynashni talab etadi.

Taktikani jismoniy va boshqa sifatlari bilan bog'liqligi; Futbol o'yining taraqqiy etishi, o'yinchilarning joylashishi va vazifalarni takomillashishiga o'zgarishiga olib keldi. Bunday taktik o'zgarishlar futbol o'yinini tezlashishiga sabab bo'ldi.

Yillar davomida futbol o'yinida taktikani o'zgarib kelishi, futbol mutaxassislari tomonidan o'rganilgan va taxlil qilingan.

M.D. Romm (1959) , B.A. Arkadev (1960) Ch. Xyus (1979) kabi futbol mutaxassislari futbol o'ynidagi taktik xarakatlarni takomilashib borganligi va xar-bir taktikani o'z davrida samara berganini, jamoalar raqiblari ustidan g'alaba qozonganliklarini ta'kidlashgan.

Taktik sistema bu o'yinchining vazifalari va ularning futbol maydonidagi o'rinlarini belgilab qo'yilgan holda jamoa bo'lib o'ynash xarakatlarini uyushtirishdir.

Shvetsiyada bo'lib o'tgan 1958 yilgi jahon chempionatida Braziliya terma jamoasining ishonchli g'alabasi bilan yakunlandi. Braziliyaliklarning bu muvaffaqiyatiga butun jaxon darxol e'tirof etgan yangi taktik sistema ko'p jixatdan sabab bo'ldi.

Braziliya terma jamoasining o'yinchilari uch qator bo'lib, ya'ni ximoya qatorida to'rt kishi, hujum qatorida to'rt kishi va o'rta qatorda ikki kishi harakatlangan.

Ximoya qatoridagi o'yinchilarning ko'payganligi yangi taktik sistemaning afzalligi bo'lib, bu hol jamoa bo'lib xarakat qilishning zona sistemasiga o'tish va darvozaning zabt etilishi xavfi eng kerakli joyda ishonchliroq ximoya qilish imkonini beradi. Ikki markaziy ximoyachidan biri sal orqaroqda o'ynab sheriklarini ximoya qiladi. Oldinda o'ynagan uch xujumchiga qarshi, endi, to'rt ximoyachi o'ynayotgani uchun ham shu tariqa ximoyalanish mumkin bo'ladi. Yarim ximoya qatori miqdor jihatdan o'zgarmaydi oldingi qatordagi o'yinchilar biroz kamayishi esa xar-bir xujumchining operativ o'ynagan joyi kengayishiga (Braziliya jamoasida xamma xujumchilar yuksak mahoratli o'yinchilar bo'lishgan) ta'minlaydi. Eng muximi raqiblarning bitta markaziy ximoyachisiga qarshi qo'shilish xisobiga bilinadi.

Yangi taktik sistemaning afzalliklarini tez tushunib olib, xamma jamoalar shunday taktikaga o'ta boshladilar. Natijada 1962 yili Chilida bo'lgan chempionatda xamma terma jamoalar "Braziliya" sxemasida o'ynadilar. Biroq Braziliya terma jamoasi boshqacha taktik tizimda o'ynadi.

Braziliya terma jamoasi 1962 yilgi Jaxon birinchiligida 1-4-3-3 sxemada joylashib, unda yangi o'yin ko'rsatdilar. 1-4-3-3 taktik sxemada futbolchilar maydonda quydagicha xarakatlandilar. Hujumda o'yinchilarning vazifasi shundan iboratki, ular maydon markaziga tezroq yetib borib, raqibga ximoyani tashkil qilishiga imkon bermagan xolda o'z xujumchilarga darvozaga to'p tepish uchun odinga chiqib olgan, uzoqdagi xujumchilarga to'p uzatish eng to'g'ri yo'ldir. Ommaviy ximoyada qisqa to'p uzatishi yordamida kombinatsiyalar qilib ularni bir qanotga chalg'itishi keyin maydon markazida ushlab turgan xolda uzoqqa to'p uzatilishi o'yin bilan o'z ximoyachisi yoki yarim ximoyachisini xujumga jalb qilish zarurdir.

O'rta chiziqdagi o'yinchilar maydon bo'ylab qatorasiga joylashadilar. Shuning uchun xam ularni o'rta chiziqning aloxida oldingi, o'rtadagi va keyingi o'yinchilar deb atashadi.

Oldindagi o'yinchilar uzoqqa to'p oshirib xujumchilarni zarba berish uchun qulay joyga chiqarib, gox orqada, goxo o'rnini tez-tez almashtirib, o'zi xal qiluvchi zarba berish uchun hujumning oldingi qatoriga o'tadi.

Yon qanotlardagi ximoyachilar yon qanot hujumchilariga qarshi xarakat qiladilar, oldindagi markaziy ximoyachi esa markaziy hujumchining to'pni olishiga qarshi xarakat qiladi. Orqada o'ynayotgan erkin ximoyachi sheriklarining xatosini tuzatib, ximoyani tashkil qiladi, bunda u doimo o'z darvozasi oldidagi eng xavfli uchaskada bo'ladi. 1-4-3-3 sistemadagi jamoaviy xarakatlar uchun keng ko'lamli manyovirlar, maydon o'rtasida o'tishda uzoq masofaga to'p uzatib berishlar va bir ikki tegishdayoq to'p uzatiladigan taktik kombinatsiyalardan foydalanib o'tkaziladigan tez xujumlar xarakterlidir.

Futbol taktikasi evolyutsiyaning davom etish 1-4-4-2 sistemasi paydo bo'lishiga olib keladi. Buning xususiyati shundaki unda o'rta qatorda turt kishidan iborat bo'ladi. Bundan tashqari o'rta qator bilan ximoya qatori o'yinchilari o'rtasida nagruzka bir tekisroq taqsimlangan bo'ladi.

O'rta qatorni mustahkamlanganda maydon o'rtasida o'yinchilar ko'payib ketadi. Ximoyada o'ynash mumkin bo'lib, ximoyachilarning xarakatlari tezkoroq, xar-xil bo'lib qoladi. Raqiblar oldingi qatordagi ikki-uch o'yinchining xar qanday xarakatlanishi xamma vaqt o'rta ximoyachining nazoratida bo'lishi shunday qilishiga yo'l qo'yib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nurimov R.I. "Futbol nazariyasi va uslubi". Darslik. T., - 2018,
2. Iseyev Sh.T. "Sport pedagogik mahoratini oshirish (Futbol)". Darslik. T. - 2018,
3. Isroilov Sh.X.ning umumiy tahriri ostida. "Sport pedagogik mahoratini oshirish (futbol)". Darslik. T.,- 2015,
4. Nurimov R.I. "Yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorlash". O'quv qo'llanma. T.,-2005
5. Sharipov F.M "Methods of Organizing and Conducting Sports Activities with Children of Preschool and Primary School Age" International Journal of Inclusive and Sustainable Education ISSN: 2833-5414 Volume 2 | No 6 | June-2023, 155-158 p. Xalqaro ilmiy jurnal . 2023 yil.
6. Sharipov F.M "The Importance of technical methods in the development of football skills" International Conference on Research Identity, Value and Ethics (USA)
<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>
April 26. 2023, 76-78 bet. Xalqaro konferensiya. 2023 yil.